

SHE’RIY MATNDA TAQLID SO‘ZLAR: OBRAZ, EMOTSIYA VA MILLIY TIL MANZARASI

Yodgorov Jaloliddin Jamolidinovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: yodgorov202@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek she’riy nutqida taqlid so‘zlarning lingvopoetik xususiyatlari, ularning badiiy matnda obraz yaratish, emotsional ta’sirchanlikni oshirish hamda milliy-madaniy o‘ziga xoslikni ifodalashdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda tovushga va holatga taqlid qiluvchi birliklarning semantik imkoniyatlari, ularning metaforik va sinestetik ifoda vositasi sifatidagi vazifalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy va klassik she’riyat misolida taqlid so‘zlarning individual ijodiy talqini, ularning ko‘pma’nolilik va kontekstual siljish xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada taqlid so‘zlarning milliy til manzarasini shakllantirishdagi o‘rni va ularning poetik matndagi funksional ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *taqlid so‘zlar, onomatopiya, lingvopoetika, badiiy matn, metafora, sinesteziya, she’riy nutq, milliy til manzarasi.*

Ma’lumki, so‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida she’riy asarlarning til xususiyatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda badiiy til turli jihatlardan tahlil qilinganligi kuzatiladi. Aksariyat ishlarda tahlilga tortilgan til birliklari qatorida taqlid so‘zlarga ham alohida e’tibor qilingan.

She’riy nutqda tasvirga jonlilik va alohida joziba baxsh etuvchi taqlid so‘zlar ijodkorning muayyan badiiy niyatini yoritishga xizmat qilish bilan birga ta’sirchanlik va aniqlik ta’kidi uchun ham xizmat qiladi. “Badiiy matnda muayyan narsa-hodisalarning obrazlarini yaratishda taqlidiy va tasviriy so‘zlardan keng foydalaniladi. Aytish mumkinki, taqlidiy so‘zlar (taq-taq, jildir-jildir, jingir-jingir, shitir-shitir, vijir-vijir, qar-qar, vov-vov, miyov kabi), hatto ular asosida yasalgan so‘zlar (taqillamoq, jildiramoq, shitirlamoq, vijirlamoq, qag‘illamoq, vovullamoq, guldurak, shildiroq, miyovlamoq kabi) badiiy obraz yaratishning bitmas-tuganmas manbalaridir”. She’riy matnda uzundan-uzoq tasvir va tavsiflarga o‘rin yo‘q. Shu bois eng ixcham va ta’sirchanlikni ta’minlovchi til birliklariga murojaat qilinadi. Natijada ijodkor tasvirlamoqchi bo‘lgan obrazni kitobxon oson tasavvur qiladi. Shu bois tovushga taqlid so‘zlar she’riy matnda alohida tadqiq qilinishi lozimdir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, tovushga taqlid ham, holatga taqlid ham olamning lisoniy manzarasida muhim qimmatga ega birlik hisoblanadi. Har bir xalqning dunyoqarashi bo‘lgani kabi uni ifodalash shakli va vositalari ham farqli bo‘ladi. Birgina xo‘rozning qichqirishi o‘zbekning chuqur til orqa undoshlari bilan ifodalansa, bir lisoniy oilaga mansub bo‘lgan turklarda undov so‘zsiz (ü-ü-rü-üüü) ifodalanadi. Yoki ruslarda sayoz til orqa (ku-ka-re-ku) tovushi bilan beriladi. Demakki, har bir millatning atrof-muhitni kuzatishi bilan undagi tovushlarni eshitishi hamda ifodalashi ham lingvistik tadqiqotlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Manbalarda taqlid so‘zlarning quyidagi turlari haqida so‘z yuritiladi: antropofon

(bu odam tovushiga taqlid), ornitofon (qushlar tovushiga taqlid), naturofon (tabiat tovushlariga), fitofon (o‘simliklar), zoofon (hayvonlar, muzikafon (musiqa cholg‘ulari tovushiga), signolofon (turli signallar) texnofon (turli texnika vositalarining siganallariga taqlid) kabi ko‘rinishlari vujudga keladi. Bundan tashqari holatga taqlid so‘z ham milliy-madaniy va lisoniy o‘ziga xoslikni yaqqol ifodalaydi. Bu esa shoirning mahoratidan darak beradi:

Ariqda tiniq-tiniq, mildir-mildir oqqan suv

Shevasi dilimga xush.

Keksa yalpiz bo‘ylari uyg‘otsa yashil tuyg‘u,

Menda yillar faromush. (Zulfiya, “Bulutlar o‘yini”)

Parchadagi mildir-mildir taqlid so‘zi o‘ziga xosligi bilan diqqatni jalb qiladi. Odatda suvning tovushiga nisbatan shildir-shildir taqlid so‘zi faol ishlatiladi (bunda ham tovush, ham oqish tarzi holati ifodalandi). Zulfiya esa suvdagi mayinlik va osudalikni tugal aks ettirish uchun mildir-mildir oqmoq shaklidan foydalanadi. Bunda suvning tovushi eshitilmaydi. Balki oqish tarzi ko‘z oldimizga keladi. Demak, ayrim taqlid so‘zlarda holat ham muayyan darajada ifodalangan bo‘ladi.

G‘izillamoq, shuvullamoq fe‘llarida ham holat va tovush sinkretik ifodalangan. G‘izillatib fe‘lida tovush bilan birga uning tezligi ham aylanadi. Shuningdek, shuvullamoq, shig‘illamoq fe‘lida ham yurakning bir holati bilan shunday bir ovoz birga idrok qilinadi.

Tadqiqotning ushbu qismida taqlid so‘zlarning borliqdagi harakat va holatlarni lirik asarlarda ko‘rsatib berishidagi o‘ziga xos jihatlarini aniqlashda quyidagi mezonlarga tayanildi: 1) shoir matnda taqlid so‘zlarni o‘z ma‘nosidan siljitib, tasvir va bayonda kuchli badiiylikka erishadi; 2) ijodkor badiiy matnda borliq harakatining qaysi nozik tomonini tasvirlayotgan bo‘lsa, o‘z badiiy maqsadiga mos taqlid so‘zni qo‘llaydi; 3) shoir taqlid so‘zlarning shakliga xos ma‘no qirralaridan foydalanib, metaforik tasvir yaratadi; 4) shoir matnda qo‘llagan taqlid so‘zini o‘quvchisi tasavvuriga moslaydi; 5) ijodkor o‘zidagi nozik tuyg‘ularni ifodalashda taqlid so‘zlardan noan‘anaviy tarzda foydalanadi; 6) she‘riy matndagi qo‘llangan taqlid so‘zlar o‘quvchi ruhiyatini shu vaziyatga moslaydi.

Shoir taqlid so‘zlarni ko‘p ma‘noliligi xususiyatiga ko‘ra ma‘no anglatishidan kelib chiqib matn yaratadi. Masalan, zamonaviy she‘riyatimizda bulbul ovozi chax- chax taqlid so‘zi orqali ifodalanadi. Ma‘lumki, chax-chax taqlid so‘zi aslida kichik sayroqi qushlar uchun ijobiy hodisa, yoqimli ovoz sifatida qo‘llanadi. Bu kabi takrorlanuvchi taqlid so‘zlar tovushga taqlidning ko‘p kuzatiladigan asosiy shakli hisoblanadi: chag‘-chag‘, g‘aq-g‘aq va hokazo.

Chax-chax taqlid so‘zining chag‘-chag‘ shakli ko‘proq qarg‘a, chug‘urchuq, zag‘izg‘on kabi nomida g‘ fonemasi ishtirok etadigan qushlar ovozini ifodalash uchun ishlatiladi. O‘TILda bu so‘zga, zag‘cha, qarg‘a singari qushlarning ovozini bildiradi deb izoh berilgan . Chax-chax shakli yoqimlilik belgisiga ega bo‘lib, asosan, bulbul kabi mitti qushlarning ovoziga ishora qiladi. Quyidagi she‘rda shoir tovushga taqlid so‘zdan holatga taqlidni ifodalashda foydalangan:

Mana, chaqnayapsan tun bag‘rin o‘yib,

O‘z baxtingdan o‘zing so‘ngsiz hayratda.

Bu baxt bulbullarni lol qilib qo‘yib,

Ko‘kda yulduzlarni chax-chax sayratdi. (M.Abdulhakim, “Diydor”)

Shu parchaning o‘zida chax-chax taqlid so‘zi ikki holatga ishora qilish orqali matnning mustahkam butunligiga xizmat qilyapti: 1) yulduzning chax-chaxi;

2) bulbulning chax-chaxi kabi. Shoir bulbulni lol, ya’ni tovushsiz, hayratda qoldirib yulduzlarni chax-chax sayratdiki, bu behad go‘zal va ohorli topilma hisoblanadi. Aytish mumkinki, matn tuzilishi ham alohida e’tiborga molik. E’tibor qilinsa, yulduzlarning qorong‘i tun bag‘rida milt-milt yonishini kuzatgan odamning hayrati bilan bulbullarning chax-chax ovozi tinglab mast bo‘lgan odamning hayrati hamohang. Ikkisida ham insonga baxtiyorlik ulashadigan holat mujassam. Bulbulning chax-chaxini eshitgan odam kayfiyati ko‘tariladi. Ko‘kda yulduzlarni tomosha qilgan odamning ham ko‘ngli yorishadi va hayajonlanadi. Shoir tovushga taqlidni holatga taqlidga aylantirishda har ikkala kuzatishdan hosil bo‘ladigan hayratni asos qilib olyapti. Shoir so‘z va tafakkurining go‘zal hosilasi hisoblangan bu o‘ziga xos sinestetik metafora taqlid so‘z asosida shakllangan. Ma’lumki, sinesteziya (yunon. syn – birga va aisthesis – his qilish, sezish)da inson a’zolari vositasida olingan hisning qorishib ketishi tushuniladi. Ya’ni sinesteziya jarayonida bir sezgi a’zosi hosil qilgan tasavvur boshqa sezgi a’zosi orqali idrok qilinadi. Boshqacha aytganda, bir hissiy yoki kognitiv tizim qo‘zg‘atilganda boshqa hissiy tizimlar ham faollashadi. Keltirilgan she’riy parchada esa eshitish orqali tasavvur qilish lozim bo‘lgan o‘rinda (bulbulning chax-chaxi) ko‘rish orqali ovozni eshitgandek holatga tushish (yulduzlarning chax-chaxi) kuzatiladi. Yoki:

Tabiatning o‘tini yo‘q o‘tida,

Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar

Har qorong‘u, qo‘rqunch tunnng betida

Shifo istab kelmasin der qo‘noqlar! (Cho‘lpon, “Buzilgan o‘lkaga”)

Lirik parchadagi taqlid so‘z matndan ajratib olinsa, bir necha polisemantik ma’nolar kelib chiqishini kuzatishimiz mumkin. “Polisemantik tasviriy so‘zlar, – deb ta’kidlaydi tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov, – asta-sekin bir-biridan uzoqlashib, ular bir-biriga aloqasi bo‘lmagan ma’nolarni anglatuvchi omonimik tasviriy so‘zlarga aylanib ketishi mumkin” . Ya’ni sharaq-sharaq til birligi, ma’lum bir qattiq (yoki yumshoq) narsa-buyumlarning bir-biriga urilishi yoki tegishi natijasida kelib chiqqan ovoz, tinch holatdan harakat holatiga o‘tish (qaynash) kabi tasvirlarni ifodalashda qo‘llanadi. Bunda, birinchidan, idish-tovoq va shu kabilarning taxlash, saralash jarayoni yoki sinish holati ifodalashda; ikkinchidan, katta temir eshik, darvoza va shunga o‘xshash moslamalarni ochish yoki yopish jarayoni tasvirlashda; uchinchidan, inson yuziga tarsaki urish natijasida kelib chiqqan tovushlarni ifodalashda; to‘rtinchidan, ma’lum bir suyuqliklarni qaynash holatini jonli tasvirlashda va shu kabi holatlarda ishlatiladi.

Cho‘lpon asarlarida, ayniqsa, asarning umumiy pafosi mustamlakachilikka qarshi bo‘lgan asarlarida o‘ziga xos fikr shiddati, keskin va qasoskor g‘oyalar tashuvchi matnlarni ko‘plab uchratish mumkin. Darhaqiqat, “adabiyot xalqqa xizmat qilishi lozim, degan e’tiqod bilan yashagan (to‘g‘rirog‘i, millatga xizmat qilish niyati bilan adabiyot maydoniga kirgan) Cho‘lpon uning shu xalqqa mos bo‘lishi, shu xalq tushunadigan bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi” . Shuningdek, “...voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalandirishda” u o‘z asarlari matnini imkon qadar milliy tilning madaniy semali

lisoniy birliklari bilan shakllantiradi. Xususan, yuqorida keltirilgan badiiy parchada qo‘llangan taqlid so‘z genetik taqlid so‘z bo‘lib, motivatsion jihatdan tovushli lisoniy birlikning tasviriy to‘yinganlik darajasi juda yuqori hisoblanadi. Bu taqlid so‘zning tovush qobig‘i borliqning ovozli tasvirini to‘liq o‘zida jamlay oladi. Ammo bu taqlid so‘z lingvistik o‘zlik va milliy tafakkur mezonlariga ko‘ra asosan ma‘lum bir fizik jarayonni leksikalashtirish bilan bog‘liq. Masalan, bu taqlid so‘z milliy tafakkurda choynak, qumg‘on, qozon va shu kabi idishlarda, yuqori harorat natijasida qaynayotgan suyuqlik(choy, ovqat va shu kabilar)ning metaforik tasvirini ko‘rsatishda ishlatiladi. Misrada taqlid so‘zdan so‘ng qo‘llangan sifatdosh(qaynab chiqqan)gacha ham o‘quvchi tafakkurida ham shu tasvirlar mavjud bo‘ladi. Tabiatda sharaq-sharaq qaynash jarayoni bilan bog‘liq voqelik toki misra oxirida buloqlar til birligi(ot)ning qo‘llanishi bilan o‘quvchida yangi tasvir va metaforik yangilanish paydo bo‘lishi bilan bog‘liq tasvir “masofasi”ni bosib o‘tadi. Shoirning umumtafakkur mahsulida etalon holatga kelgan tasvirni, choy va ovqat kabi suyuqliklarning qaynashi bilan bog‘liq tasvirni peyzajning ayni bir parcha jarayoniga ko‘chirishi natijasida kuchli badiiy topilma yaratilgan. Aytish mumkinki, “badiiy asarda qo‘llanadigan til vositalarining jamlanmasi bilan yozuvchi o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan estetik ta’sirni ta’minlaydi”. Ijodkor o‘z tasavvuridagi hissiy assotsiatsiyalarni ma‘lum bir taqlid so‘zga yuklar ekan, har qanday holatda ham milliy til doirasidan tashqariga chiqqan olmaydi, ayniqsa bu jarayon taqlid so‘zlar bilan bog‘liq bo‘lganda. Chunki taqlid so‘zlar, bizningcha, milliy til(lug‘at)imizdagi boshqa til birliklariga qaraganda o‘zida milliy va madaniy o‘zlikni aniqroq ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Cho‘lpon qo‘llagan sharaq-sharaq taqlid so‘zida ham shu jihat ustuvor. Voqelikni ijodkor shu lison bilan tasavvur etgan. “Kishilar nerv faoliyatining har xil bo‘lishi ular psixikasining har xil bo‘lishiga olib keladi – deb ta’kidlaydi olim B.Ismoilov. – Bir kishining eshitish qobiliyati yaxshi rivojlangan, ikkinchisining ko‘zi o‘tkir bo‘ladi va hokazo. Shuning uchun ham bir hodisani har kim har xil qabul qilishi, tasavvur qilishi tabiiy”. Bu til egalari bilan ijodkorning farazlari o‘zaro muvofiq kelishini va o‘quvchi hamda ijodkor o‘rtasidagi qisman yoki to‘liq darajadagi o‘zaro bir-birini tushunishni ham belgilaydi. Bundan ko‘rinadiki, “...har qanday nutq ko‘rinishi bu – o‘zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxs faoliyatining natijasidir”

Holatga taqlid so‘zlar ham milliy-madaniy va lisoniy o‘ziga xoslikni yaqqol ifodalaydi. Birgina yomg‘irning yog‘ishi har bir xalqda o‘zgacha idrok qilinadi va shunga mos ifoda tanlanadi. O‘zbek yomg‘irning yog‘ishini shovullab, shuvullab, shig‘alab fe‘llari bilan ifodalaydi. Biroq ijodkorlar o‘zlarining eshitish tarzini ham ifodalaydiki, bu kitobxonda qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Yomg‘irning shovullab yog‘ishini R.Parfi benihoya aniqlik bilan shu tarzda tasvirlaydi:

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Tomchilar tomchilar sochimga.

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Ham qayg‘umga, ham quvonchimga.

Shig‘alab so‘zida yomg‘irning ovozini va tezligini aniq ko‘z oldimizga keltiramiz va eshitamiz. Bu esa shoirning mahoratidan darak beradi. Zero, ijodkor o‘zining til zaxirasi, badiiy tafakkuri va ijodiy o‘ziga xosligi, shuningdek, borliq voqeligidagi ovozli tasvirni aniq

leksik birlik bilan berishi lozim. Bu, albatta, shoirning ijodiy erkinligi, badiiy voqelikni tasvirlashdagi o‘ziga xos hissiyotlari bilan bog‘liq “huquqi” hisoblanadi. Zero, shu bilan ijodkor tashqi dunyoni leksikalashtirishda ko‘zlagan badiiy maqsadiga erishadi. Darhaqiqat, professor M.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “So‘z qo‘llashning san‘at darajasida yoki san‘at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so‘z, uning ma’nosi va bu ma’noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so‘z qo‘llanishi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan qo‘shimcha ma’no nozikliklari, mazmun o‘zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin”.

Kundalik hayotimizni tovushlarsiz tasavvur qilish qiyin. Atrofdagi tabiat tovushlari, shuningdek, odamlar nutqi dunyoni idrok etishda asosiy rol o‘ynaydi. Tug‘ilgandan so‘ng, bola teginish, hidlash, ko‘rish va eshitish orqali atrofdagi haqiqatni bilishni boshlaydi. Onomatopik leksika istisnosiz barcha bolalar uchun xos bo‘lib, ushbu leksemalarni o‘z ichiga olgan so‘zlar ular aytadigan birinchi so‘zlarga aylanadi. Bu haqida professor N.Mahmudov fikrlariga e’tibor qaratsak: “Binobarin, xalqning tiynati va tabiatini, ruhiyati va mentalitetini tildan ayri holda tasavvur qilib ham, tadqiq etib ham bo‘lmaydi. Tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli so‘z, ibora-ifodalarda xalqning mental o‘ziga xosligi muayyan tarzda in’ikosini topadi. Zotan, bunday obrazli ifodalar xalqning teran dunyoqarashi, obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan”. Darhaqiqat, fonosemantikaning obyekti taqlid va tovush-simvolik so‘zlar orqali tilda tadqiq etiladigan obrazlar tizimidir, ya’ni taqlid va tovush simvolikasi. Taqlid (ikonizm, tovush ikonizmi) – biror obyekt, hodisa yoki harakatning tovush tomoniga taqlid qilishidir. Tovush simvolining aynan “hayotga kelish jarayoni”, ya’ni taqlid so‘zga ko‘chishida metaforik tafakkur ustuvor sanaladi.

Shoir tilda mavjud talaffuzi yaqin taqlid so‘zlarni qo‘llab, taqlid so‘zni matndagi boshqa leksik birliklar mazmunini va mantiqiy zichlab metaforik tasvir yaratadi:

Tamtam malaksiymo chachvonin tashlar,

Yag‘mo shamlariga ibodat boshlar. (A.Qutbiddin, “Nayson”)

Misoldagi taqlid so‘zning vujudga kelishi bir qarashda tasodifdek bo‘lsa-da, lekin ularning ma’nosi umumiy milliy tafakkur hosilasi sifatida til egalari tomonidan umumiy tarzda qabul qilinganligi kundek ayon bo‘lib turibdi. O‘TILda bu so‘zga 1) qaddi-qomati kelishgan, zebo; 2) o‘ziga, kiyim boshiga zeb bergan, bashang, olifta; 3) katta mis barkash shaklidagi, tayoqcha bilan urib chalinadigan musiqa asbobi deb izoh berilgan. Ta’riflardan kelib chiqilsa, tamtam taqlid so‘zi chachvon so‘zi bilan mantiqan bog‘lanyapti. Ikkinchi izohdagi ma’noga mos tushgan bu taqlid so‘z sifat vazifasini bajargan. Shoir o‘z qahramonini qo‘shimcha tavsiflarsiz bir taqlid so‘zni qo‘llash bilan o‘quvchi tasavvurida uning tashqi ko‘rinishi aniq tasvirlanishiga erishgan. Taqlid so‘zning matndan tashqaridagi ma’nosi o‘z ma’nosiga ega bo‘lib, tovushga taqlidga ishora qiladi hamda madaniy jihatdan umumtafakkurga xoslangan. Yuqorida keltirilgan izohlarning ikkinchisi. Bu vaziyatda yozuvchi musiqa asbobi nomini keltirib o‘tirmaydi, bu musiqiy asbob o‘quvchiga noma’lum bo‘lishi mumkinligini hisobga oladi: – Hoy inson! Ertalab-ku, uyquni harom qilishga qilding! Mis karnaying bilan tamtamingni chalib, butun kvartalni uyg‘otding! (O‘.Hoshimov, “Tushda kechgan umrlar”)

Matn va mantiqiy talab bilan bir talaffuzi o‘xshash taqlid birligini qo‘llash holati vujudga kelgan. Bu vaziyatdagi taqlid so‘zning hissiy bo‘yoqdorligiga e’tibor qaratilsa,

o‘quvchi personaj nutqidagi qo‘rslik, mensimaslik, kibr va shu kabi salbiy ma’noni oson anglab oladi.

Shoirilar tildagi mavjud taqlid so‘zlarni o‘z ma’nosidan siljitgan holda qo‘llab, hissiy tuyg‘ularini noodatiy tarzda matnda ifodalaydi. Ayniqsa bu jihat modern she’riyati vakillari asarlarini tahlil etish jarayonlarida yaqqol seziladi:

Yana sharros yomg‘ir

So‘ng birinchi qor...

Qushlar ham yayrashib qiladi “churq-churq”

Har tomchi – xotira...

Har tomchi – fig‘on...

Suyakmas,

Yuragim qiladi “zirq-zirq” (D.Shams. “Kuz ertagi”)

Modern she’riyatning an’anaviy she’riy mezonlardan ham shaklan, ham mantiqan farqlovchi bir qadar jihatlari mavjud. Bu o‘ziga xos xususiyat lirik matnda qo‘llangan barcha leksik birliklar bilan bir qatorda undov va taqlid so‘zlar so‘zlarning boshqa til birliklari bilan bo‘lgan munosabati va badiiy matnda tutgan o‘rnini tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Misoldagi lirik qahramonning umumiy holati chuqur intim tasvirga yo‘g‘rilgan: peyzaj tasviri lirik qahramonning ichki tuyg‘ulariga ko‘rinmas ip bilan ulab yuborgandek go‘yo. Qushlarning yayrashib churq-churq taqlid so‘zi she’r so‘nggidagi zirq-zirq taqlid so‘ziga qofiyadosh qilib olingan. Gorizontall lingvopoetik tahlil usuli bilan asardagi taqlid so‘zlarning vazifasi faqatgina qofiya yasash emas.

Modern she’riyatda shakldan ko‘ra, tuyg‘ular tasviriga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Modernizm she’riyat vakillari “bunda mantiqiy-tahliliy mushohadaga qarshi turib, irratsional ongni yetakchi sanaydilar. Shuning uchun modernistlar an’anaviy metodlarni inkor etib, abstrakt, noreal ifoda shakllarida ijod eta boshlaydi. Bu yo‘nalish vakillari ijtimoiylikdan chekinib, o‘z shuuri tomon yuzlanadi” . Xullas, churq-churq so‘zi O‘TILda (taql.s. Qushlarning chirqillashi, ba’zi mayda narsalarning urilishi va sh.k. dan hosil bo‘ladigan tovushlarni ifodalaydi) ta’rifi aytib o‘tilgan. Bu taqlid so‘z o‘zining izohli lug‘atdagi ma’nosida siljimagan yoki o‘zi ishtirok etgan misradagi umumiy ma’nodan ajrab qolmagan hamda uning tushunilishida biror to‘siq mavjud emas. Ammo misra so‘nggida qo‘llangan zirq-zirq taqlid so‘zi haqida bunday deyish mushkulroq. Zero, zirq-zirq taqlid so‘zi O‘TILda zirq-zirq qilmoq, zirqirab, qaqshab og‘rimoq ma’nosi bilan izohlangan . Lug‘atdagi ta’rifi va taqlid so‘zning umumiste’mol ma’nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, odatda zirqirab og‘rish inson tanasining qattiq qismlariga nisbatan qo‘llanadi. Ammo shoir bu taqlid ma’nosini yurak og‘rig‘ini tasvirlashga moslagan. Bizningcha, inson tanasining qattiq qismlaridagi og‘riqni yumshoq qismlaridagi og‘riqlardan kuchli bo‘lishini shu tanlov orqali noodatiy tasvirlagan. Mana shunday o‘rinlarda, ya’ni tahlillarda grammatik stilistikaning o‘zi ojizlik qilib qolishini tarix isbotlab turibdi. Yoki:

Bog‘lar gurkiraydi, osmon ham g‘ilt-g‘ilt,

Bir yig‘lab oladi, kular qaldirab.

Qushlar gurrosiga mo‘ltirab mo‘lt-mo‘lt,

Shaharga kiradi qirlar galdirab. (A.Qutbiddin, “Nayson”)

Hozirda lirik matn yaratilishida ijodkorning odatiy yoxud yangi topildiq (g‘ilt-g‘ilt) tarzda taqlidiy leksik birliklarni qo‘llashi ijod jarayonidagi odatiy me’yorga aylanib ulgurgan. Bu bilan, birinchidan, shoirning ijodiy leksik zaxirasi kengaysa, ikkinchidan, badiiy asarning estetik qimmati yanada mustahkamlanadi, uchinchidan, she’rxon badiiy matnni oson o‘zlashtiradi. Birinchi misrada qo‘llangan g‘ilt-g‘ilt taqlid so‘zi ovozga taqlid bo‘lib, biror suyuqlikni jonli mavjudot tomonidan iste’mol qilinganda tabiiy tarzda chiquvchi ovoz hisoblanadi. Darhaqiqat, g‘ilt taqlid so‘ziga O‘TILda, suyuqlikni yutayotganda tomoqda paydo bo‘ladigan tovushni bildirishi keltirilgan .

Lingvopoetik tahlilning gorizantal usulidan kelib chiqib taqlid so‘zning poetik vazifasini aniqlaydigan bo‘lsak, bu holatda g‘ilt-g‘ilt ovozga taqlid so‘zi holat, tasvir va ko‘rinishni ifodalab shartli ravishda polisemantik ma’no anglatgan. Birinchi misradagi barcha va ikkinchi misraning yarmigacha bo‘lgan leksemalar assotsiativ ravishda bu taqlid so‘z bilan mantiqan va grammatik jihatdan aloqaga kirishgan. Natijada she’rxon tasavvurida peyzajning lirik tasviri, ya’ni yomg‘irli va tund shahar manzarasi osongina tasvirlanadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, shoir bunday vaziyatlarda “majburiy” tarzda matnga tirkayotgan taqlid so‘zni boshqa leksemalar bilan erkin birikib ketishini ta’minlashi zarur. Ayni paytda ijodkor o‘zining ichki hissiy tuyg‘ulari va maqsadini shakllantirishda milliy tafakkur hamda o‘quvchining hissiyot omillarini e’tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Mo‘lt-mo‘lt taqlid so‘ziga O‘TILda, ko‘zda yoshning to‘lib-to‘kilib turgan holatining ifodalanishi aytilgan . Bu vaziyatda shoir taqlid so‘zni o‘z ma’nosida qo‘llagan, o‘quvchi bu taqlid so‘z bilan chizilgan tasvirni qiyinchiliklarsiz oson tushunib yetadi. Shunday ekan, badiiy matnda qo‘llangan taqlid so‘zlarni lingvopoetik tahlil etish jarayonlarida, lirik matnning lingvistik va adabiyotshunoslik mezonlarining o‘zidagina foydalanish kamlik qiladi. Lirik matnning o‘ziga xos ruhini yaxshilab sezmasdan turib va bu asarning yaratilish jarayonida shoir tushgan ruhiy holatni qisman bo‘lsa-da, his qilmasdan turib lingvopoetik tahlil samaradorligini oshirish mushkul. Yana:

Aravakash do‘rillar:

– Qarib qoldi tushmagur...

Hurkar tog‘ soyalari,

Har, hur, hur ... (A.Qutbiddin, “Nayson”)

Tilshunos olim J.Lapasov: “Badiiy nutq ichki va tashqi, og‘zaki va yozma, dialogik va monologik nutqlarga bo‘linadi” , – deb ta’kidlaydi. Olimning fikrlari hozirgi tilshunoslikning rivojlanish evolyutsiyasida ba’zi “nazariy korroziya”ga uchraganligini aytish lozim. Xususan, olim ta’kidlagan ichki monolog hozirgi tilshunoslikda “egotsentrik paradigma” antropotsentrik paradigmaning bir turi sifatida talqin etiladi. Intim lirikaning ba’zi ko‘rinishlarida mana shu nutqning qaysidir jihatlari ko‘rinadi. Bunga professor N.Mahmudov: “Antropotsentrik paradigma tadqiqotchi diqqatini bilish obyektidan subyektiga ko‘chishidir, ya’ni bunda inson tilning ichida va til inson tarkibida o‘rganiladi” , – deb ta’rif beradi. Darhaqiqat, til bu jarayonning vujudga kelishida “... ohang, so‘z tartibi, maxsus konstruksiyalar, takrorlar, yuklamalar, undov va taqlid so‘zlar va kirishlar” dan iborat bo‘lishsa lirik matnning voqelikka aloqadorlik jihati yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маҳмудов Н. Тил ва тафаккур. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2012.
2. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослиги ва антропоцентрик парадигма. – Тошкент: Фан, 2015.
3. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
4. Йўлдошев М. Бадиий матн ва лингвопоэтика. – Тошкент: Академнашр, 2014.
5. Исмоилов Б. Психоллингвистика асослари. – Тошкент: Университет, 2008.
6. Умуркулов Б. Ўзбек поэтик нутқи ва бадиий тил. – Тошкент: Фан, 2006.
7. Лапасов Ж. Нутқ турлари ва стилистик таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
8. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006–2008.
9. Зулфия. Шеърлар тўплами. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1983.
10. Чўлпон. Бузилган ўлкага (шеърлар ва мақолалар). – Тошкент: Шарқ, 1991.
11. Парфи Р. Сайланма шеърлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1999.
12. Абдулҳаким М. Дийдор. – Тошкент: Ёш гвардия, 2010.
13. Қутбиддин А. Найсон (шеърый тўплам). – Тошкент: Шарқ, 2003.
14. Обиджон А. Баҳромнинг ҳикоялари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
15. Шамс Д. Куз эртаги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.
16. Ўзбек тили грамматикаси (И–III жилд). – Тошкент: Фан, 1998.
17. Звегинцев В. Очерки по общему языкознанию (тилшунослик назариялари учун қўшимча манба). – Москва, 1976.
18. Степанов Й. Семиотика ва тил маданияти. – Москва, 1983.